Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316299

жараёнлар боришидаги бузилишлар албатта, шаҳснинг нуқсонини белгилаб бермайди.

3. Бузилишларнинг бир қанча кўринишлари шаклланишида органик омилларнинг роли дезадаптив таъсирланишларга ўрганиш имкониятини инкор этмайди.

Адабиётлар

1. Сатвалдиев А. Раҳбарнинг касбий маҳорати //scienceweb academic papers collection. – 2021.
2.Сатвалдиев А. Бошқарув тизимида фаолият кўрсатаётган раҳбар хотин-қизларнинг шахсий ва ижтимоий психологик сифатлари //scienceweb academic papers collection. – 2019.
3.Сатвалдиев А. А. Женское лидерства в предпринимательстве сегодня //“ххи аср психологияси” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – 2021. – с. 215.
4.Сатвалдиев А. Условия и решения для женщин предпринимателей сегодня //scienceweb academic papers collection. – 2020.
5.Сатвалдиев А. Гендерные вопросы в узбекистане //scienceweb academic papers collection. – 2020.
6.Сатвалдиев А. The role of women leaders in small business and private entrepreneurship //international journal of formal education. – 2022.
7.Сатвалдиев А. Personal and social psychological factors of female managers //scientific and technical journal machine building. – 2022.

ZAMONAVIY INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich
“Kokand University” Andijon filiali,
«Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika fanlar»
kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
ataxanov1966@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kungi ta’lim tarbiya jarayonida keng qo‘llanilayotgan va talab qilinayotgan metodlardan biri bu – innovatsion-pedagogik va axborot ta’lim texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojdir. Chunki, zamonaviy o‘qitishning yangi ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish bir vaqtning o‘zida joriy etilishi zarur bo‘lgan dolzarb ta’lim texnologiyalaridan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan ko‘pchilikning ko‘nikishi qiyin bo‘lgan sun'iy muammo sifatida gavdalanmoqda. Masalaning dolzarbligi shundaki, bugun O‘zbekistondagi ta’lim sifati xorijiy davlatlar ta’lim standartlaridan katta farq qilishi mumkin emas, chunki Davlatimiz islohotlariningn muhim tarmoqlaridan biri ham ta’lim sifatiga qaratilgan. Qolaversa maqsadimiz, ta’lim sifati va ko‘rsatkichlari bo‘yicha dunyodagi top 1000, top 100 talik universitetlar qatoridan joy olish hisoblanadi. Shuning uchun Oliy ta’lim

Published: 17.05.2024
Cite this article: Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich (2024). Zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari: muammo va yechimlar. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316299
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

muassasalarining professor-o‘qituvchilari ta’lim jarayonida zamon talabiga mos ravishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishlari shart va majburdirlar. Aks holda mazkur talabga javob bermaydigan professor-o‘qituvchi kelgusida OTM sohasida pedagogik faoliyat olib borishi muammoni paydo qiladi. Aslida, innovatsion texnologiya o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra an'anaviylikdan voz kechgan holda talabalarga tayyor bilimlarni berish va o‘rgatishdan ko‘ra, aksincha ularni o‘zlarini egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganishlari, tahlil qilishlari va xulosalar qilishlari lozim. O‘qituvchi esa bu o‘rinda koordinator (boshqaruvchi) sifatida kerakli topshiriqlar, vazifalar, test mashqlari, adabiyotlar va shu kabi fanning zaruriy resurslari bilan talabalarni ta’minlashlari kifoya. Hozirgi muammo shundaki, bugungi kunda na professor-o‘qituvchilar, na talabalar bu talablarga ko‘nikishi ancha sust ketmoqda. Bilьaks o‘qituvchilar an'anaviy dars mashg‘ulotlarini davom ettirmoqdalar, talabalar esa shu muhitga tobora ko‘nikib bormoqdalar. Natijada talabalar oliy ta’limda saboq olishni faqatgina o‘qituvchidan olish deb bilmoqdalar. Oxir-oqibatda talabalar mustaqil ta’lim, topshiriqlarni bajarish kabi vazifalarni faqatgina ta’lim muassasida degan tushunchaga kelmoqdalar.

Mavzuga oid mavjud muammolar: Shuning uchun oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy o‘qitish metodlari – hisoblangan interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki, professor-o‘qituvchilar qachonki, yangilik (innovatsiya) joriy qilmas ekan an'anaviylikdan voz kechishi ham shunchalik qiyin kechadi

Shavkat Mirziyoyev "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lolmaymiz" [1] degan edi.

Nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo taraqqiyotning yangi — innovatsion yo‘lini tanlagan. Nega? chunki, bugun innovatsion g‘oyalar, yangiliklar — mamlakatning rivojlanish darajasini belgilab bermoqda. Innovatsiyalarning paydo bo‘lishi ortida — uzoq yillar davomida amalga oshirilgan o‘ta mashaqqatli mehnat yotadi. Ammo ko‘pincha, innovatsiyani yaratishdan ko‘ra, uni singdirish o‘ta qiyin masalaga aylanadi. **Prezident Shavkat Mirziyoyevning** O‘zbekistonda innovatsiyalarga "yashil chiroq"ni yoqish maqsadida, **"O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida"gi farmoni** ham aynan shu maqsadalarga qaratilgani bejiz emas.

Innovatsiya atamasi lotin tilidagi “innovatio” so‘zidan olingan bo‘lib, kiritilgan o‘zgarishlar, yangiliklar degan ma’noni beradi. Innovatsiya tushunchasi fanga XIX asr boshlarida avstriya va amerika iqtisodchi olimi Y.Shumpeter tadqiqotlari natijasida kirib keldi [2]. Bugungi kunda bu atama jamiyatning barcha sohalarida xususan, ilmiy doiralarda, tadbirkorlikda, biznes yuritishda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bir so‘z bilan aytganda innovatsiya ilmiy-texnika yutuklari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish, sohalarga oid yangiliklar kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, ularni turli

sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llaydi. Ken ma’noda “innovatsiya” pedagogik tizimga yangilik kiritish yo‘li bilan ta’lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, sifat va samadorlikni oshirishni ko‘zda tutadi [3].

Pedagogikaga oid adabiyot va ilmiy tadqiqotlarda innovatsiya jaraèn quyidagicha beriladi [4]:

1. Yangi g‘oya tuzilish shakli èki yangilik kontseptsiyasini paydo qilish. U kashfièt bosqichi deb ham yuritiladi;
2. Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi;
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash bosqichi;
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish;
5. Muayyan sohada yangilikni xukmronlik qilish bosqichi;

Innovatsion ta’lim - bu ta’lim oluvchida yangi goya, me’yor, qoidalarni yaratish, qabul qilishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdan iborat. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta’lim innovatsiyalari - bu ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘ullanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir. [5].

innovatsiya, bir tomondan, innovatsiyani amalga oshirish jarayoni emas, balki innovatsiyani muayyan ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir. Innovatsion faoliyat o‘zining to‘liq rivojlanishida o‘zaro bog’liq bo‘lgan ish turlarini o‘z ichiga oladi, ularning umumiyligi real innovatsiyalarning paydo bo‘lishini ta’minlaydi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanish eng samarali vositalardan hisoblanadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchlik funksiyasini bajaradi.

Muammoni hal qilish usullari: Innovotsion texnologiyalarning o‘rni va ro‘li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritia borib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni u pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lb, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, musaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkilllanishi.

fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishshlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog’liq deb hisoblash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda "innovatsion ta’lim" bu o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir bo‘lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan va rivojlanayotgan ta’limdir.

- O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni o‘sib kelayotgan avlodni yuksak ma’naviyatli, intelektual salohiyati baland, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash hamda mamlakatimiz kelajagini yanada yuksaltiradigan, intelektual salohiyatli, malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, uzluksiz ta’lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishini ko‘zda tutadi. Bunda shaxs uzluksiz ta’limda va kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining iste'molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan bu iste'molchi hamda ishlab chiqaruvchisi bo‘lmish yosh avlodning ertangi kunini belgilab beruvchi bilim va ko‘nikmalari, o‘z navbatida malakali pedagog-o‘qituvchilar tomonidan qiziqarli dars mashg’ulotlari, dunyo bilim va ko‘nikmalariga javob bera oladigan bilimlar orqali mustahkamlanib bormog’i lozimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimida yangicha sifat ko‘rsatkichlariga erishish uchun innovatsion ta'lim jarayonlarning samaradorligi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Ta'lim to‘g‘risidagi Qonun talablari doirasida ishlab chiqilishi va joriy etilishini ta'minlashda islohotlarni uzluksiz va tizimli tashkil etilishiga bog‘liq. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi.

Lekin shuni ham ta'kidlamoq joizki, innovatsion ta'lim texnologiyalari o‘zining afzalliklari bilan birga an'anaviy lekin, tajribada sinovdan o‘tgan hamda yillar davomida ijobiy natijalar berayotgan metodik usullardan butunlay voz kechishni anglatmaydi. Masalan, matematika fanlarini o‘qitishda talaba shaxsan o‘zi mustaqil ravishda, o‘qituvchining bevosita nazorati ostida misollarni ishlashi va uning yechimlarini topishi katta motivatsion xarakterga ega. Yoki fizika va kimyo fanlarida laboratoriya ishlarini ham xuddi shu tartibda bajarilishi talabalarning xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xullas, innovatsion ta'lim texnologiyasini an'anaviylik bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri

rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://sputniknews.uz/
2.https://ru.wikipedia.org/wiki/
3. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/talimda-innovacion-tehnologiyalar
4. Xudoyqulov X.J., Allayarova S.N. Oliy ta'limda modulli o‘qitish va unda innovatsion texnologiyalardan foydalanish toshkent «mumtoz so‘z» 2019. V.20
5. Madreymova N. innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari va nazariy asoslari. https://cyberleninka.ru/
6. Dusmuxamedova D.R, Lafasov B.J Professional ta'lim o‘quvchilarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o‘qitish. C:/Users/user/Downloads

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ЖАРАЁНЛАРИ

Аҳмаджонов Содиқжон
Андижон машинасозлик институти
“Иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси

Янги Ўзбекистонимизнинг барқарор ва самарали иқтисодиётини шакллантириш борасида амалга ошириб келинаётган ислоҳотлар бугунги кунда ўзининг натижаларини намоён этмоқда. Жумладан, қисқа вақт ичида иқтисодиётда чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш аҳоли даромадларининг ўсишини таъминлаш самарали ташқи савдо ҳамда инвестиция жараёнларини кучайтириш, қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасини барқарор ривожлантириш, банк-молия тизими фаолиятини мустаҳкамлашда аҳамиятли ютуқлар қўлга киритилади. Ҳозирги даврда дунё мамлакатлари ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ўзининг маъно-мазмунн жиҳатидан олдинги босқичлардан кескин фарқ қилади. Бунда энг асосий ва муҳим жиҳат – миллий иқтисодиётнинг тобора интеграциялашуви ва глобаллашувининг кучайиб боришидир. Айни пайтда жараёнлар халқаро майдондаги рақобатнинг ҳам кескинлашувига, ҳар бир мамлакатнинг халқаро меҳнат тақсимотидаги ўз мавқеини мустаҳкамлаш учун курашининг кучайишига ҳам таъсир кўрсатади.

2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида мамлакатимиз ижтимоий ҳаётида таълим сифатини ошириш масалаларига алоҳида аҳамият қаратилган. Айниқса, келажакни ўйлаб Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида “Ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифадир” - деб айтган